

---

## #Yil\_sarhisobi\_2024 Qo'shtepa tumanida aholini toza va sifatli ichimlik suv bilan ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda

Qo'shtepa tumanida hududlarda ichimlik suv ta'minotini yaxshilash, aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash borasida e'tiborga molik ishlar olib borilmoqda. Xususan, o'tgan 2024 yil davomida Davlat dasturiga asosan "Qumtepa" mahallasi hududidagi mavjud 1 dona tik ichimlik suvi qudug'ini tozalash, 1 dona suv minorasini ta'mirlash, 2 dona yangi suv nasosi o'rnatish, 11 ta ko'chaga 10.6 km yangi ichimlik suvi tarmog'i tortish ishlari olib borildi. Shuningdek, 580 ta xonadonga tarmoq tortilib, suv hisoblagichlar o'rnatildi.

Tumandagi ichimlik suvi ta'minoti og'ir bo'lgan hududlarda yashovchi aholi xonadonlarini markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida tuman hokimining 2024 yil 31-may kungi tegishli farmoyishiga asosan "O'qchi" mahallasidagi Yangifarg'ona ko'chasiga 300, "Loysen" mahallasidagi Mulkobod ko'chasiga 400, "G'ishtmon" mahallasidagi Ohang ko'chasiga 1100, "Vatan" mahallasidagi Shifokorlar ko'chasiga 700, "Shahartepa" mahallasidagi Movorounahr ko'chasiga 132, "Qorakaltak" mahallasidagi Sokin ko'chasiga 228 metr, jami 2850 metr suv quvurlari olib berildi va "Farg'ona suv ta'minoti" MCHJ Qo'shtepa tuman bo'limi xodimlari tomonidan montaj ishlari bajarildi.

Bundan tashqari tuman hokimining 2024 yil 12 noyabr kungi tegishli farmoyishiga asosan "O'rta-O'qchi", "Vatan", "Do'rmon", "Loysen", "Shodlik", "G'ishtmon", "Dehqonobod", "Yangiariq", "Qorakaltak", "Xalqobod" hamda "Xumdon" mahallalaridagi ko'chalarga ham jami 8750 metr suv quvurlari olib berildi.

"Sarmozor", "Istiqlol", "G'ishtmon" mahallalaridagi suv inshootlari esa yangi 3 dona suv nasoslari bilan ta'minlandi. Buning natijasida tumanda yashovchi 1000 dan ortiq xonadonlar ilk bor markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlandi.

O'tgan yillar davomida suv ta'minotini yaxshilash borasida tumanimizda ulkan buniyodkorlik ishlari olib borildi. Xatto tumandagi eng chekka qishloqlarda ham ichimlik suvi ta'minoti tubdan yaxshilandi va bu ishlar ushbu yilda ham davom etadi.

2025-01-08 10:20:55